

## G'o'zaning istiqbolli "O'zFA-710" navi xorijlik ishlab chiqaruvchilar e'tirofida

Hozirgi kun seleksiya fanining dolzarb vazifalaridan biri O'zbekistonning har bir viloyati sharoitlarida tabiiy potentsialini to'liq ko'rsata oladigan g'o'za navlarini tanlash va hududlarga joylashtirish hisoblanadi. Bu borada O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti seleksioner olimlari tomonidan seleksiya qilingan "O'zFA-710" navi e'tiborga molik. Mazkur nav I.Qahharov, O.Ergashevlarning ko'p yillik izlanishlari samarasi hisoblanadi. "O'zFA-710" navi g'o'zaning G.hirsutum L.turining geografik uzoq shakllari, xususan, mahalliy 6161 tizmasini x 75007-3 (Avstraliya navi) bilan duragaylashdan ajratib olingan L-2969 tizmasi asosida uzoq yillar davomida maqsadli qayta-qayta tanlash usulini qo'llash orqali yaratilgan.



Mazkur g'o'za navining boshqa navlardan farqi tola chiqimi yuqori (40-43%), hosil elementlarini ko'p tugadi. Bundan tashqari, qurg'oqchilik, kasalliklar va boshqa stress omillarga chidamli.

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiya institutining "Farg'ona" filiali, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi "Nasafiy" va Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiotosh tumanidagi "Azamat" yangi navlar urug'larini dastlabki ko'paytiruvchi elita urug'chilik fermer xo'jaliklarida urug'chilik ishlari davom ettirildi. Navning "Farg'ona" filialda 12 ga maydonda tayyorlangan urug'lik qismi mazkur tumanda faoliyat olib borayotgan "FERGANA SPINNING" klasteri tomonidan to'liq qabul qilindi.

Alohida e'tirof etish lozimki, "O'zFA-710" navi yaqin qo'shnilarimiz ishlab chiqaruvchilarida ham katta qiziqish uyg'otgan bo'lib, hozirda hamkorlik masalalari o'rganilmoqda.